

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.01.2025.P.190.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI

BOBOYEVA FERUZA AZIMJONOVNA

**O‘SMIRLARDA QADRIYATLAR HAQIDAGI TASAVVURLARNI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
DETERMINANTLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по психологическим наукам**

**Contents of dissertatsion abstract of doctor of philosophy (PhD) on
psychological sciences**

Boboyeva Feruza Azimjonovna

О'zmiralarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishning pedagogik-
psixologik determinantlari.....3

Бобоева Феруза Азимжоновна

Педагогико-психологические детерминанты развития представлений о
ценностях у подростков.....23

Вовоуева Feruza Azimjonovna

Pedagogical and psychological determinants of the development of values in
adolescents45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....49

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.01.2025.P.190.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI

BOBOYEVA FERUZA AZIMJONOVNA

**O‘SMIRLARDA QADRIYATLAR HAQIDAGI TASAVVURLARNI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
DETERMINANTLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PHD/P1024 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bxu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Ostonov Shuhrat Sharifovich**
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Jo'rayev Baxrom**
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Baxromova Komila Yadgarovna
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Ma'mun Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro xalqaro universiteti huzuridagi PhD.03/04.01.2025.P.190.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « » soat dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 250-uy. Tel.: (+9955) 309-99-99; email: bxu@bxu.uz).


Dissertatsiya bilan Buxoro xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 250-uy. Tel.: (+9955) 309-99-99).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « » kuni tarqatildi.

(2025-yil « » dagi - raqamli reyestr bayonnomasi).


Sh.R. Baratov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori, professor


M.N. Usmanova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
psixologiya fanlari nomzodi, professor


D.A. Sobirova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori
(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda shaxsning qadriyatlar yoʻnalishi, ehtiyojlarini toʻla-toʻkis qondirish shaxs kamolotini taʼminlovchi muhim shartlardan hisoblanib, bu masalaning ustuvorligi borasida ilmiy izlanishlarga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Xususan, TIMSS, STEAM, PIRLS kabi xalqaro dasturlarning statistik maʼlumotlariga qaraganda, milliy qadriyatlarni barqaror shakllantirishga salbiy taʼsir etuvchi anglanilmagan mayllarni paydo boʻlishi 18%, gʻayritabiiy xatti-harakatlarni kelib chiqishi 22%, loqaydlik 19% hamda jinoyat motivlarini shakllanishi 31% ekanligi aniqlangan. Ushbu maʼlumotlardan kelib chiqib, dunyoda shaxsning qadriyatlar yoʻnalishini toʻgʻri tarkib toptirish hamda maʼnaviy fazilatlarini egallash bilan bogʻliq omillarni aniqlash boʻyicha psixolog-mutaxassis faoliyatini takomillashtirishga yoʻnaltirilgan chora-tadbirlarga eʼtibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Jahon ilmiy tadqiqot markazlari va taʼlim muassasalarida taraqqiyotining zamonaviy bosqichida globallashtirish va integratsiyalashuv jarayonlarining jadallashuvi ijtimoiy, siyosiy, moddiy va maʼnaviy, huquqiy, iqtisodiy, etnopsixologik munosabatlarga jiddiy taʼsiri kuzatilmoqda. YUNESKOning 2030-yilgacha belgilangan xalqaro taʼlim konsepsiyasida¹ har qanday mamlakat aholisida milliy tarbiya, axloq va milliy qadriyatini saqlab qolish zarurati taʼkidlangan. Koʻpgina xalqaro tashkilotlarda, xususan BMT, YUNESKO, YUNISEF, SHHTda inson hayoti, turli ehtiyojlari va uning qondirilishi davlat siyosati darajasidagi muhim masala sifatida qaralmoqda. Dunyoda shaxsning ijtimoiy-psixologik strukturasi tashkil etuvchi, xususan, qadriyatlar, ehtiyojlar, xatti-harakatlar, xulq-atvor, motivatsion yoʻnalganlik va faoliyat muhim omillar sifatida tadqiq qilinmoqda. Bu borada butun dunyoda barqaror tinchlik, hamjihatlik va unga erishish uchun yoshlar xulq-atvorida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan saʼy-harakatlarni hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muammosi dolzarb boʻlib qolmoqda.

Respublikamizda soʻnggi yillarda shaxsning maʼnaviy taraqqiyoti va shu boradagi ehtiyojlarini taʼminlash, ayniqsa, yoshlarni maʼnaviy tarbiyasiga alohida eʼtibor qaratish, boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil etish boʻyicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi PF-60-son Farmonda «...yoshlarning maʼnaviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga koʻmaklashish, ularni vatanparvarlik, fuqarolik tuygʻusi, bagʻrikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli taʼsirlar hamda oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga boʻlgan qatʼiy ishonch, qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash...»² ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida belgilandi. Buning natijasida yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirish,

¹ Designing effective monitoring and evaluation of education systems for 2030: A global synthesis of policies and practices (UNESCO Education Sector Division for Policies and Lifelong Learning Systems, January 2016), p 38,52,77

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmoni. - <https://lex.uz/docs/5841063>

jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi ishtirokini kuchaytirish, ularning ta'lim olish tartibi, ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, shuningdek, mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillarini o'rganish muammosini o'zbek olimlaridan B.A. Abduqodirov, G.J.Abduraxmonova, F.A.Akramova, Z.X.Abdurahmonova, Sh.R.Baratov, B.M.Botirov, X.X.Jabborov, V.M.Karimova, N.M.Musinova, Z.T.Nishonova, A.Q.Turg'unov, N.G'.B.Shoumarov, M.Quronov, U.D.Qodirov, A.A.G'aybullayev, E.G'.G'oziyev va boshqalar ilmiy tadqiq etganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan L.G.Alekseeva, G.M.Andreva, M.I.Bobneva, B.M.Velichkovskiy, O.A.Konopkin, M.A.Xolodnaya, A.V.Petrovskiy, L.G. Semushina va boshqalarning ilmiy izlanishlarida – shaxs qadriyatlari, motivatsiyasi va ijtimoiy xulq-atvori bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijiy psixolog olimlardan G.V.Allport, J.Bruner, R. Inglehart, K.Klakxon, A.H.Maslow, J.Piaje, M. Rokich, F.Strodtbek, S. Schwartz va boshqalar tomonidan gumanistik psixologiya orqali qadriyatlar va o'zini anglash masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-202005236 «Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish» nomli innovatsion loyiha doirasida bajarilgan (2021-2022-yy.).

Tadqiqotning maqsadi. O‘smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik determinantlarini aniqlash va uni ilmiy-uslubiy jihatdan takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘smirlarning qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishiga ta’sir etuvchi pedagogik- psixologik omillarni aniqlash;

o‘smirlarda qadriyatlar samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi pedagogik-psixologik mexanizmlarning o‘rni va ahamiyatini tadqiq etish;

o‘smirlarning qadriyatlar tizimi va motivatsion sohasi dinamikasini o‘zaro munosabatlarini baholash va yosh xususiyatlariga bog‘liq ekanligini ilmiy asoslash;

«o‘smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish» dasturiga tayanib o‘smirlarning shaxsiy, milliy, umuminsoniy xususiyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi sababli kognitiv, xulqiy, motivatsion omillarini integratsiyalash asosida takomillashtirish.

Tadqiqotning obyeksi sifatida o‘smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik determinantlari tanlangan bo‘lib, tadqiqotda Buxoro va Navoiy viloyatlaridan 124 nafar 5-sinf o‘quvchilari, 122 nafar 8-sinf o‘quvchilari jami 246 nafar respondent jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini o‘smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik determinantlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatish metodlaridan, shuningdek, I.G.Senin «Qadriyatlar yo‘nalishlari» savolnomasi (QaYS), M.Rokichning «Shaxsiy qadriyatlar yo‘nalishini o‘lchash» metodikasi (o‘zbek muhitiga moslashtirilgan variant), M. Kubishkinaning «MAS» so‘rovnomasi, «O‘smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni aniqlash» so‘rovnomasi (F.A.Boboyeva; Sh.R.Ostanov)dan foydalanildi. Shuningdek, olingan natijalarning ishonchlilik darajasi Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti hamda SPSS dasturining bir qator imkoniyatlari orqali aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘smirlarda qadriyatlar tizimining shakllanishi faol ijtimoiy hayotda o‘zlikni anglash va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarining tengdoshlari orasidagi hissiy qo‘llab-quvvatlash ehtiyojiga bog‘liq yutuqlarga yo‘naltirilganlik hamda ijodkorlik xususiyatlariga identiv rivojlanishi sababli, shaxslararo munosabatlardagi o‘z «ijtimoiy Men»ini emotsional qadriyatlar asosida qabul qilishi bilan bog‘liq ekanligi dalillangan.

o‘smirlarning kasbiy qadriyatlar haqidagi tasavvurlari sinf jamoasida ijtimoiy nufuzga, sog‘lom raqobatga intilish, o‘quvchidagi «Men»ning «Biz»ga aylanishiga ta’sir etib, o‘quvchining xulq-atvorining ijtimoiylashgan shaklda namoyon bo‘lishiga olib kelganligi tufayli, affilyativ ustanovkalarga asoslangan guruhni idrok qilish darajasiga bog‘liq ekanligi dalillangan.

o‘smirlarning oilaviy va shaxsiy qadriyatlarni idrok etishida yosh xususiyatlari ta’siri natijasida muloqot hamda faoliyatga oid qarashlarning shaxsning o‘zini va boshqalarni qabul qilish darajasiga bog‘liq rivojlanishiga asoslanib, instrumental va

terminal qadriyatlar ijtimoiy tasavvurlarning emotsional vektoriga identiv namoyon bo'lishi isbotlangan.

o'smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish uchun terminal qadriyatlardagi kasbiy va shaxsiy hayotda o'zini realizatsiyalashning instrumental qadriyatlar guruhidagi individual, konformistik va altruistik qarashlar bilan uyg'un namoyon bo'lishi muhimligi sababli, shaxs ijtimoiy tasavvurlariga refleksiv mexanizmlar asosida ta'sir etish zarurligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llanilgan;

o'smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlar darajasini diagnostika qilish so'rovnomasi ishlab chiqilgan;

o'smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlar dinamikasini yosh xususiyatlari bilan bog'lab izohlashning pedagogik-psixologik tuzilmasi taklif etilgan;

o'smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishga mo'ljallangan pedagogik-psixologik dastur ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma'lumotlarning reprezentativligi, empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko'rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «Ms Exsel», «SPSS 24.0» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik-psixologik omillar tahlili, shuningdek, tadqiqot materiallari o'smir shaxsi shakllanishi hamda motivatsion sohasidagi munosabatlarini belgilovchi motivlar to'g'risidagi ilmiy bilimlarni hamda «Pedagogik psixologiya», «Etnopsixologiya», «Psixologik maslahat», «Ijtimoiy psixologiya» kabi fanlarni ilmiy ma'lumotlar bilan to'ldirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati innovatsion g'oyalar va xorijiy tajriba asosida o'smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik-psixologik omillar, ularning o'ziga xos jihatlarini ifodalovchi mexanizmlarning psixologik mazmuni, mohiyati tavsiflangan ilmiy xulosalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. «O'smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik determinantlari»ni o'rganish bo'yicha erishilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

o'smirlarda qadriyatlar tizimining shakllanishi faol ijtimoiy hayotda o'zlikni anglash va o'z ustida ishlash ko'nikmalarining tengdoshlari orasidagi hissiy qo'llab-quvvatlash ehtiyojiga bog'liq yutuqlarga yo'naltirilganlik hamda ijodkorlik

xususiyatlariga identiv rivojlanishi sababli, shaxslararo munosabatlardagi o‘z «ijtimoiy Men»ini emotsional qadriyatlar asosida qabul qilishi bilan bog‘liq ekanligi dalillangan takliflar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o‘quv-ilmiy markazi a‘zolarining 2025-yil 19-avgustdagi PM-87-son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o‘quv-ilmiy markazi a‘zolarining 2025-yil 19-avgustdagi PM-87-son ma‘lumotnomasi) Natijada o‘smirlarda qadriyatlarni namoyon bo‘lishidagi ustuvor omillar aniqlashtirilgan.

o‘smirlarning kasbiy qadriyatlar haqidagi tasavvurlari sinf jamoasida ijtimoiy nufuzga, sog‘lom raqobatga intilish, o‘quvchidagi «Men»ning «Biz»ga aylanishiga ta‘sir etib, o‘quvchining xulq-atvorining ijtimoiylashgan shaklda namoyon bo‘lishiga olib kelganligi tufayli, affilyativ ustanovkalarga asoslangan guruhni idrok qilish darajasiga bog‘liq ekanligi dalillangan takliflar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o‘quv-ilmiy markazi a‘zolarining 2025-yil 19-avgustdagi PM-87-son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o‘quv-ilmiy markazi a‘zolarining 2025-yil 19-avgustdagi PM-87-son ma‘lumotnomasi) Natijada o‘smirlarda qadriyatlarni namoyon bo‘lishidagi ijodiy faollikning o‘rni aniqlangan.

o‘smirlarning oilaviy va shaxsiy qadriyatlarni idrok etishida yosh xususiyatlari ta‘siri natijasida muloqot hamda faoliyatga oid qarashlarning shaxsning o‘zini va boshqalarni qabul qilish darajasiga bog‘liq rivojlanishiga asoslanib, instrumental va terminal qadriyatlar ijtimoiy tasavvurlarning emotsional vektoriga identiv namoyon bo‘lishi isbotlangan takliflar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o‘quv-ilmiy markazi a‘zolarining 2025-yil 19-avgustdagi PM-87-son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o‘quv-ilmiy markazi a‘zolarining 2025-yil 19-avgustdagi PM-87-son ma‘lumotnomasi) Natijada o‘smirlarda qadriyatlarni rivojlanishiga oilaviy qadriyatlarning ta‘sirini aniqlash imkoniyati yaratilgan

o‘smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish uchun terminal qadriyatlardagi kasbiy va shaxsiy hayotda o‘zini realizatsiyalashning instrumental qadriyatlar guruhidagi individual, konformistik va altruistik qarashlar bilan uyg‘un namoyon bo‘lishi muhimligi sababli, shaxs ijtimoiy tasavvurlariga refleksiv mexanizmlar asosida ta‘sir etish zarurligi dalillangan takliflar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o‘quv-ilmiy markazi a‘zolarining 2025-yil 19-avgustdagi PM-87-son buyrug‘i bilan «Psixokorreksiya» moduliga kiritilgan. (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o‘quv-ilmiy markazi a‘zolarining 2025-yil 19-avgustdagi PM-87-son ma‘lumotnomasi) Natijada, o‘smirlarda qadriyatlarni rivojlanishini ta‘minlovich psixologik model va trening dasturi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 137 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi yoritilgan, e'lon qilingan ishlar, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**O'smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishning metodologik asoslar**» deb nomlangan birinchi bobida o'smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarning nazariy tahlili amalga oshirilgan.

Sharq mutafakkirlari Ahmad al Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Ismoil al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, Abu Abdulloh Rudakiy, Abdulqosim Firdavsiy, Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Najmiddin Kubro Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarimiz qadriyatlarini insonning odob-axloqi, muloqoti va boshqa sifatlarini shakllanishidagi o'rni haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlarni qoldirganlar.

MDH mamlakatlari olimlaridan B.G.Ananov, B.D.Parigin, G.M.Andreeva, A.A.Badalov, Y.V.Shoroxova, F.V.Bassin, L.S.Vigotskiy, A.V.Vedenov, Yu.M.Zabrodin, A.G.Kovalov, I.S.Kon, T.A.Kitvel, Y.S.Kuzmin, M.S.Kagon, I.T.Levikin, V.S.Merlin, V.N.Myasishev, V.S.Magun, I.P.Pavlov, K.K.Platonov, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin, V.A.Yadov va boshqalar ijtimoiy qadriyatlar va ularning shaxs faoliyatdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab beradilar.

Dissertatsiyaning «**O'smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantiruvchi psixologik mexanizmlar**» deb nomlangan ikkinchi bobi o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi o'z aksini topgan.

Dastlab, «O‘smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni aniqlash» so‘rovnomasi bo‘yicha o‘smirlardan olingan dastlabki natijalar tahliliga o‘tamiz.

1-jadval

«O‘smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni aniqlash» so‘rovnomasi bo‘yicha o‘smirlardan olingan dastlabki natijalar tahlili(n=246)

Omillar	8-sinf n=122	5-sinf n=124	t	p
Umuminsoniy qadriyatlar	3,4	3,0	-2,5	0,05
Oilaviy qadriyatlar	3,3	2,8	-2,9	0,05
Shaxsiy qadriyatlar	3,5	2,9	-4,0	0,05
Kognitiv qadriyatlar	3,2	2,7	-3,0	0,05
Milliy qadriyatlar	3,6	3,0	-3,6	0,05

Olingan natijalar ko‘rsatadiki, «Umuminsoniy qadriyatlar» omili bo‘yicha 8-sinf o‘quvchilari 5-sinfga qaraganda ancha yuqori baholash darajasini namoyon qildilar ($t=-2,5$; $p\leq 0,05$). Bunday tafovut o‘smirlik davrida insoniylik, adolat, mehr-oqibat va tenglik kabi qadriyatlarni ongli qabul qilish jarayonining kuchayib borishi bilan izohlanadi. Mazkur yosh bosqichida jamiyatda o‘z o‘rnini anglash va global ijtimoiy normalar bilan uyg‘unlashishga moyillik kuchayadi. Umuminsoniy qadriyatlar shaxsning axloqiy qarashlari va ijtimoiy mas’uliyatini belgilovchi mezon sifatida tobora barqarorlashadi. O‘quvchilarda huquqiy ong, inson huquqlariga hurmat va hamkorlik tamoyillariga e’tiborning ortishi ijtimoiy muhit ta’siri bilan mustahkamlanadi. Bunday qadriyatlar oilada, maktabda va tengdoshlar bilan muloqotda shakllanib, yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli o‘smirlar dunyoqarashida tolerantlik, insoniy munosabatlar va boshqalar bilan hamjihatlikni qadrlash kuchayadi. Maktab ta’limida o‘quvchilarni umumiy insoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ularning ijtimoiy moslashuvchanligini kengaytiradi. O‘smirlar orasida hamjihatlik, birdamlik va o‘zaro yordamni qadrlash ko‘proq kuzatiladi. Bu sifatlar ijtimoiy hayotga faol integratsiya jarayonini tezlashtiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, «Oilaviy qadriyatlar» bo‘yicha sezilarli farqlar aniqlandi ($t=-2,9$; $p\leq 0,05$). 8-sinf o‘quvchilari oilani qadrlash, ota-onaga hurmat va oilaviy birdamlikni e’tirof etishda ancha yuqori natija ko‘rsatdilar. Bu farq yosh o‘tishi bilan shaxsning mas’uliyat hissi, oilaviy an’analarga hurmat va nasliy qadriyatlarga sodiqlik ortishi bilan izohlanadi. Oila o‘smir shaxsining birlamchi ijtimoiylashuv muhitidir. Bu qadriyatlarning chuqurroq anglanishi uning ijtimoiy barqarorligini ta’minlaydi. Oilaviy qadriyatlar orqali o‘quvchilarda mehr-oqibat, hamjihatlik va hissiy qo‘llab-quvvatlashga intilish kuchayadi. Maktabda ham oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan ta’limiy ishlar samarali bo‘lib, ular shaxsda oilaviy birdamlikka e’tibor uyg‘otadi. Bu qadriyatlarning shakllanishi yoshlarning psixologik barqarorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Oila o‘z navbatida o‘smirlarga axloqiy me’yorlar va milliy an’analarning amaliy namunalarini beradi.

Aniqlangan natijalar «Shaxsiy qadriyatlar» yo‘nalishida ham sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatdi ($t=-4,0$; $p\leq 0,05$). 8-sinf o‘quvchilari o‘z shaxsiy mustaqilliklari, erkinlikka intilishlari va o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan harakatlari tufayli yuqoriroq ko‘rsatkichga ega bo‘ldilar. Bu yosh davrida o‘z-o‘zini anglash va shaxsiy qarashlarni shakllantirish jarayoni jadallashadi. O‘smirlar o‘zlarini alohida shaxs sifatida tasavvur qilishni va shaxsiy huquqlarini anglashni boshlaydilar. Shaxsiy qadriyatlarning kuchayishi irodaviy mustaqillik va qaror qabul qilish qobiliyatining ortishiga olib keladi. Shuningdek, bu jarayon individual maqsadlarni belgilash va ularga erishish motivatsiyasini mustahkamlaydi. Maktab ta’limi shaxsiy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlagan taqdirda, o‘smirlar o‘z iste’dodlari va qiziqishlarini rivojlantirishga ko‘proq intiladilar. Shaxsiy qadriyatlar psixologik yetuklikning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

O‘tkazilgan tahlil «Kognitiv qadriyatlar» bo‘yicha ham farqlarni qayd etdi ($t=-3,0$; $p\leq 0,05$). 8-sinf o‘quvchilari bilim olish, tafakkurni rivojlantirish va intellektual o‘rishga nisbatan yuqori e’tibor qaratadilar. Bunday natija yosh o‘tishi bilan bilimga chanqoqlik va ma’lumotlarni mustaqil o‘rganishga intilish kuchayishi bilan izohlanadi. Kognitiv qadriyatlar shaxsning intellektual faoliyatida samarali bo‘lishi va ilmiy tafakkurga yo‘nalishi uchun zamin yaratadi. Maktab ta’limi jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi va ijodiy tafakkurini qo‘llab-quvvatlash bu qadriyatlarning shakllanishini kuchaytiradi. 8-sinfda bilim olishga bo‘lgan intilish yuqoriroq bo‘lib, bu ularning kelajakdagi kasbiy yo‘nalishlariga ham ta’sir qiladi. Kognitiv qadriyatlar orqali yoshlar dunyoqarashlarini kengaytiradilar va ilmiy faoliyatga qiziqish kuchayadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, «Milliy qadriyatlar» omili bo‘yicha ham muhim farqlar aniqlandi ($t=-3,6$; $p\leq 0,05$). 8-sinf o‘quvchilari milliy an’analariga sodiqlik, madaniy merosni qadrlash va milliy o‘zlikni anglashda yuqoriroq ko‘rsatkich qayd etdilar. Bu farq yosh o‘tishi bilan shaxsning milliy ongining mustahkamlanishi, tarixiy merosni anglash va madaniy qadriyatlarga hurmat kuchayishi bilan izohlanadi. Milliy qadriyatlar o‘quvchilarda vatanparvarlik ruhini, milliy birdamlikni va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytiradi. Bu qadriyatlarning rivojlanishi yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida milliy qadriyatlarni singdirish, o‘quvchilarning ma’naviy kamolotiga xizmat qiladi. Shuningdek, milliy an’analar asosida tarbiyalangan o‘quvchilar jamiyatda hamjihatlikni mustahkamlaydilar. Milliy qadriyatlarni chuqur anglash o‘z-o‘zini qadrlash va jamiyatga foydali bo‘lish motivatsiyasini kuchaytiradi.

2-jadval

M. Rokichning «Shaxsiy qadriyatlar yo‘nalishini o‘lchash metodikasi» metodikasi bo‘yicha o‘smirlardan olingan dastlabki natijalar tahlili (n=246)

Yo‘nalish	8-sinf	5-sinf	t	p
Instrumental qadriyatlar	10,2	9,3	-1,3	0,17
Terminal qadriyatlar	10,5	9,1	-2,1	0,05

Olingan natijalarga ko'ra, «Terminal qadriyatlar» omili bo'yicha sezilarli farqlar aniqlandi ($t=-2,1$; $p\leq 0,05$). Ushbu ko'rsatkich o'smirlar hayotiy maqsadlarni belgilash va kelajakni tasavvur etish jarayonida terminal qadriyatlarga alohida e'tibor qaratayotganidan dalolat beradi. Bunday qadriyatlarning shakllanishi shaxsning ma'naviy olami va ijtimoiy identifikatsiyasida muhim o'rin tutadi. Terminal qadriyatlarga nisbatan yuqori darajadagi e'tibor yoshlarning jamiyatdagi rolini anglashiga yordam beradi. O'quvchilarda maqsad qo'yish, kelajakka ishonch va o'z hayotini mazmunli qurish istagi kuchayadi. Terminal qadriyatlar yuqori baholanganda, shaxsda vatanparvarlik, mehnatsevarlik va ma'naviy barkamollikka intilish mustahkamlanadi. Mazkur qadriyatlarning kuchayishi yoshlarning ijtimoiy moslashuvchanligini yuksaltiradi. O'quvchilar o'z hayotlarini boshqarishda aniq strategiyalar ishlab chiqishga moyillik ko'rsatadilar. Terminal qadriyatlar barqaror shakllanganda, shaxsning ijtimoiy faoliyati ham samaraliroq bo'ladi.

Natijalarning ko'rsatishicha, «Instrumental qadriyatlar» omili bo'yicha ishonchli farqlar aniqlanmadi ($t=-1,3$; $p\leq 0,05$). Bu holat o'smirlarning axloqiy yo'l-yo'riqlari, odob qoidalari va kundalik hayotdagi xulqiy me'yorlarga nisbatan barqaror munosabat shakllanganini bildiradi. Instrumental qadriyatlar axloqiy mezonlar, shaxslararo munosabatlarda halollik va mehnatsevarlik kabi sifatlarni qamrab oladi. Instrumental qadriyatlar o'zaro hurmat, do'stlik va hamkorlikni mustahkamlash orqali ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlaydi. Ushbu qadriyatlarning mavjudligi shaxsning kundalik hayotdagi qarorlarini ongli tarzda qabul qilishiga xizmat qiladi. O'quvchilarda mas'uliyat, odillik va xushmuomalalik kabi sifatlarning instrumental qadriyatlarning natijasi sifatida qaraladi.

Yuqoridagi empirik natijalardan kelib chiqib, biz tadqiqotimiz davomida o'smirlarning qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini shakllanishiga ta'sir qiluvchi pedagogik-psixologik omillarni o'rganish maqsadida korrelyatsion bog'lanishlarni o'rganib chiqdik. Dastlab, «**O'smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni aniqlash**» so'rovnomasi hamda MAS metodikasi ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'liqlik natijalarini ko'rib chiqamiz.

3-jadval.

O'smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni aniqlash hamda MAS metodikasi ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'liqlik natijalari (Pirson mezonida) (n=246)

Omillar	Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish	Raqobatga intilish	Maqsadga erishishga intilish
Umuminsoniy qadriyatlar	0,101	-0,757**	0,054
Oilaviy qadriyatlar	0,123	0,152	0,642*
Shaxsiy qadriyatlar	0,923**	0,114	0,155
Kognitiv qadriyatlar	0,124	0,836**	0,535*
Milliy qadriyatlar	0,101	-0,761**	0,146

Izoh: *- $p<0,05$, **- $p<0,01$, ***- $p<0,001$

Biz tadqiqotimizning vazifalaridan kelib chiqib o'smirlarni qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini rivojlanishiga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik omillarni aniqlash maqsadida o'smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni hamda MAS metodikasi ko'rsatkichlari orasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqladik.

Dastlabki «Umuminsoniy qadriyatlar» omili «Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish» ($r=-,101$; $p<0,01$) va «Raqobatga intilish» ($r=-0,757$; $p<0,01$) bilan manfiy bog'liqlik mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Bu holat shuni ko'rsatadiki, o'smirlar umumiy insoniy qadriyatlarni qanchalik yuqori qadrlasalar, jamiyatda shaxsiy obro' va raqobatga qaratilgan intilishlari shunchalik pasayadi. Manfiy korrelyatsiya o'quvchilar orasida o'zaro yordam, hamkorlik va birdamlikka moyillik kuchayishi bilan izohlanadi. Raqobatga intilishning kamayishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarni chuqurroq o'zlashtirgan o'quvchilar ijtimoiy integratsiyada muvaffaqiyatliroq bo'ladilar. O'qituvchilar o'z faoliyatlarida ko'proq hamkorlikka asoslangan metodlardan foydalansalar, o'quvchilarda insoniy qadriyatlar mustahkamlanadi. Manfiy bog'liqlik natijasida o'quvchilarda shaxsiy obro'-e'tibor emas, balki ijtimoiy birdamlik mezonlari asosiy omil sifatida shakllanadi. Umuminsoniy qadriyatlarining ustunligi shaxsiy manfaatlarni emas, balki jamoa manfaatlarini ilgari surishga undaydi.

«Oilaviy qadriyatlar omili esa, «Maqsadga erishishga intilish» ($r=0,642$; $p<0,01$) bilan musbat darajadagi bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Bu ko'rsatkich shuni anglatadiki, oilaviy qadriyatlarni yuqori darajada qadrlagan o'smirlar hayotiy maqsadlarni belgilash va ularga erishishda ham yuqori motivatsiya namoyon etadilar. Oilaviy qadriyatlar o'z navbatida shaxsning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytiradi va bu hol maqsad sari intilishning ichki kuchini mustahkamlaydi. Shaxs o'zini oilaviy qadriyatlar orqali anglaganida, uning qaror qabul qilish jarayoni ham maqsadga yo'naltirilgan bo'lib boradi. Pedagogik determinant sifatida oilaga oid qadriyatlarni ta'lim jarayoniga singdirish, o'quvchilarda barqaror motivatsion tizimni shakllantiradi. Oilaviy qadriyatlar asosida tarbiyalangan o'quvchi jamiyatda ham o'zining maqsadli faoliyati bilan ajralib turadi. Shu sababli, oilaviy qadriyatlarining kuchayishi shaxsning hayotiy strategiyalarini ham yanada samaraliroq qiladi. Oila qadriyatlariga tayanish yoshlarni ijtimoiy faoliyatda ham ko'proq muvaffaqiyatga eltadi. Oilaviy qadriyatlar va maqsad sari intilish o'rtasidagi bu uzviy bog'liqlik shaxsning har tomonlama barkamollikka intilishini ko'rsatadi.

«Shaxsiy qadriyatlar» omili «Ijtimoiy nufuz, prestijga intilish» ($r=0,923^{**}$; $p<0,00$) bilan bog'liqligi aniqlandi. Bunday yuqori ko'rsatkich o'smirlarning o'zini shaxs sifatida namoyon etishida ijtimoiy maqom va tan olinish muhim motivatsion omil ekanini ko'rsatadi. Shaxsiy qadriyatlar o'smirlik davrida kuchayib, ular ijtimoiy nufuzni qozonishni o'z shaxsiy maqsadlari bilan uyg'unlashtiradilar. O'zini qadrlash darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar ko'pincha jamoada yetakchilikka intilib, ijtimoiy mavqeni mustahkamlashga harakat qiladilar. Pedagogik determinantlar sifatida ta'lim jarayonida ijtimoiy faollikni rag'batlantirish, ijtimoiy loyihalarga jalb qilish va yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat

kasb etadi. Psixologik determinantlar esa o'zini namoyon etish, o'zini boshqalardan ajratib ko'rsatish va jamiyatda o'rnini topishga intilishdan iboratdir. Shuningdek, o'smirlarda qadriyatlar tizimining shakllanishi faol ijtimoiy hayotda o'zlikni anglash va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini tengdoshlari orasidagi hissiy qo'llab-quvvatlanish ehtiyojiga bog'liq yutuqlarga yo'naltirilganlik hamda ijodkorlik xususiyatlariga identiv rivojlanishi sababli shaxslararo munosabatlardagi o'z «ijtimoiy Men»ini emotsional qadriyatlar asosida qabul qilishi bilan bog'liq ekanligini dalillaydi. Natijada, shaxsiy qadriyatlar va ijtimoiy nufuz o'rtasidagi yaqin aloqadorlik ularning psixologik barqarorligi va kelajakdagi ijtimoiy faoliyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo'ladi.

«Kognitiv qadriyatlar» omili «Raqobatga intilish» ($r=0,836$; $p<0,00$) va «Maqsadga erishishga intilish» ($r=0,535$; $p<0,05$) omillari bilan o'zaro bog'liqligi aniqlandi. Kognitiv qadriyatlarni yuqori baholagan o'smirlar odatda raqobat muhitida o'z imkoniyatlarini sinashga moyil bo'ladilar, chunki bilim va tafakkur ular uchun obro' va ustunlik manbai sifatida qaraladi. Kognitiv qadriyatlarning kuchayishi o'quvchilarda uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish qobiliyatini oshiradi. Ushbu qadriyatlarning mavjudligi o'smirlarni o'z bilim va intellektual salohiyatini jamiyat manfaati uchun yo'naltirishga undaydi. Raqobat va maqsadga erishishga intilish bilan bog'liqlikning yuqoriligi o'quvchilarda akademik yutuqlarni oshirishga ham olib keladi. Kognitiv qadriyatlarning rivojlanishi orqali yoshlar ilmfan va ta'lim sohalarida ijtimoiy faolroq bo'ladilar. Shu tariqa, kognitiv qadriyatlar bilan motivatsion omillar o'rtasidagi bog'liqlik shaxsning har tomonlama intellektual va ijtimoiy barkamollikka erishishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, «Milliy qadriyatlar» va «Raqobatga intilish» o'rtasida salbiy bog'liqlik mavjud bo'lib, bu o'smirlarning milliy qadriyatlarni qanchalik yuqori baholashlari ularning shaxsiy raqobatga intilishlarini shunchalik kamaytirishini anglatadi ($r=-0,761$; $p<0,01$). Ushbu jarayon yoshlarning milliy ong va o'zlikni anglash darajasi kuchaygani sari jamoaviy manfaatlarni shaxsiy ustunlikdan ustun qo'yishi bilan izohlanadi. Milliy qadriyatlarga e'tibor kuchli bo'lgan shaxs ko'proq birdamlik, hamkorlik va umumiy maqsadlarga yo'naladi. Raqobatga intilishning pasayishi esa ijtimoiy muhitda murosaga tayyorlik va hamjihatlikni kuchaytiradi. Natija shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlarni yuqori darajada anglagan o'quvchilar shaxsiy yutuqdan ko'ra ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarga e'tibor qaratadilar. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan yoshlar jamoaviy faoliyatlarda ko'proq samaradorlikka erishdilar. Milliy qadriyatlarning ustuvorligi raqobat o'rnini hamjihatlik va birdamlik tamoyillari bilan almashtiradi. Demak, yuqoridagi empirik tahlillardan ko'rish mumkinki, o'smirlarni milliy qadriyatlar bilan tarbiyalab borish ularning qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'smirlarni milliy tarbiyasiga ularni guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasi hamda maqsadga erishish darajasi bevosita ta'sir etdi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, «Umuminsoniy qadriyatlar» omilining yuqori darajada rivojlanishi o'smirlarning «Oliy nufuzga ega bo'lish» intilishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu holat ularning jamiyatda faol ishtirok

etishlari va ijtimoiy maqomga erishish istagini mustahkamlaydi ($r=0,823$; $p\leq 0,01$). Bunday aloqadorlik pedagogik jarayonda o'quvchilarga ijtimoiy adolat, hamkorlik va insonparvarlikni singdirish orqali yanada boyitiladi. «Faol ijtimoiy munosabatlar» bilan ijobiy bog'liqlik ($r=0,187$; $p\leq 0,01$) esa o'quvchilarda jamoaviy ishlarni qadrlash, bir-biriga yordam berish va ijtimoiy birdamlikni ustuvor qadriyat sifatida qabul qilishlariga sabab bo'ladi. Mazkur jihat pedagogik determinant sifatida guruhiy mashg'ulotlar, jamoaviy loyihalar va ijtimoiy faoliyatlarni ta'lim jarayoniga keng joriy etishni taqozo qiladi. «Ma'naviy qoniqish» bilan bog'liqlik ($r=0,351$; $p\leq 0,05$) o'quvchilarning axloqiy qarashlari va ichki ruhiy holatini mustahkamlaydi. Ushbu bog'lanishlar o'quvchilarda shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarning uyg'unlashuvini ta'minlab, ularni ma'naviy barkamollikka olib boruvchi muhim psixologik hamda pedagogik determinantlar sifatida namoyon bo'ladi.

4-jadval

«O'smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni aniqlash» hamda «Qadriyatlar yo'nalishlari» savolnomasi ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'liqlik natijalari (Pirson mezonida asosida) (n=246)

Omillar	Umuminsoniy qadriyatlar	Oilaviy qadriyatlar	Shaxsiy qadriyatlar	Kognitiv qadriyatlar	Milliy qadriyatlar
Oliy nufuzga ega bo'lish	0,823**	0,624*	0,178	0,276**	0,361*
Yuqori moddiy ta'minlanganlik	0,183	0,396*	0,134**	0,342	0,364
Ijodkorlik	0,196	0,178	0,174	0,223	0,219*
Faol ijtimoiy munosabatlar	0,187**	0,195	0,196	0,347	0,232*
O'z ustida ishlash	0,371	0,183	0,427*	0,263*	0,159
Yutuqlarga yo'nalganlik	0,237	0,321	0,245*	0,187**	0,187
Ma'naviy qoniqish	0,351*	0,612	0,399	0,175	0,324*
O'zlikni anglash	0,259*	0,158	0,367	0,238	0,119**

Izoh: * - $p < 0,05$, ** - $p < 0,01$, *** - $p < 0,00$

Shuningdek, «O'zlikni anglash» bilan ijobiy bog'lanish ($r=0,259$; $p\leq 0,05$) shaxsiy identifikatsiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki o'smirlar bu jarayon orqali kimligini, qadrini va jamiyatdagi rolini aniqroq tushunadilar. Shu bilan birga, o'smirlarning kasbiy qadriyatlar haqidagi tasavvurlari sinf jamoasida ijtimoiy nufuzga va sog'lom raqobatga intilish bilan bog'liq holda

«Men»dan «Biz»ga o'tish jarayonini faollashtiradi. Bu o'zgarish o'quvchilarning xulq-atvorining ijtimoiylashgan shaklda namoyon bo'lishiga olib kelganligi tufayli, affilyativ ustanovkalarga asoslangan guruhni idrok qilish darajasiga bog'liqdir. Ushbu bog'lanishlar o'quvchilarda shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarining uyg'unlashuvini ta'minlab, ularni ma'naviy barkamollikka olib boruvchi muhim psixologik hamda pedagogik determinantlar sifatida namoyon bo'ladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, «Oilaviy qadriyatlar» o'smirlar ongida nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy hayotiy yo'nalishlarni ham belgilab beradi. Ushbu omilning «Oliy nufuzga ega bo'lish» bilan bog'lanishi ($r=0,624$; $p\leq 0,05$) oilaviy qadriyatlarni qadrlash shaxsning jamiyatdagi obro'-e'tiborini mustahkamlashga yordam berishini anglatadi. Bunday bog'lanish pedagogik determinant sifatida tarbiya jarayonida oilaviy an'analar va qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish orqali kuchayadi. Natijalarga ko'ra, «Yuqori moddiy ta'minlanganlik» bilan musbat munosabat ($r=0,396$; $p\leq 0,05$) oilaviy qadriyatlarining iqtisodiy barqarorlik va moddiy farovonlik bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Bu jarayonda psixologik determinant sifatida xavfsizlik, barqarorlik va kelajakka ishonch muhim o'rin tutadi. O'quvchilarda moddiy ta'minlanganlik ehtiyoji oilaviy qadriyatlarga tayanib shakllanganda, ular kelajakda mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga moyil bo'ladilar. Shuningdek, «Ma'naviy qoniqish» bilan bog'liqlik ($r=0,612$; $p\leq 0,05$) oilaning ruhiy qo'llab-quvvatlashi, mehr va hamjihatlik orqali shaxsning ichki muvozanatini ta'minlashini ko'rsatadi. Ma'naviy qoniqish kuchli bo'lganda, o'quvchilar o'zini jamiyatda barqaror va ijobiy shaxs sifatida namoyon etadilar. Shu tariqa, oilaviy qadriyatlar o'smirlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotida muhim determinant sifatida ularning kelajakdagi barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.


